

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрлович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадилович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА.....168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЪМУН-МОҲИЯТИ191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237
- Aziz Xasanovich Rajabiy*
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251
- Хојитуродова Маһлиохон Кенжавоу қизи, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

13.00.00- Педагогика фанлари

Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
feruzaxonmamadova@gmail.com

**BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL**

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik modeli, pedagogik faoliyat, qobiliyat darajalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik madaniyat, diagnostik, prognostik, profilaktik, inson huquqlari, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, kasbiy kompetentlik.

Mamadova Feruzaxon Mirzaakhmad
Teacher at Fergana State University

**FUTURE PHYSICAL CULTURE EXPERTS
PEDAGOGICAL MODEL FOR IMPROVING PEDAGOGICAL CULTURE AND
COMPETENCE**

Abstract. The article discusses the pedagogical model of improving the pedagogical culture and competence of future physical culture specialists, pedagogical activity, levels of ability.

Keywords: pedagogical culture, diagnostic, prognostic, prophylactic, human rights, psychological, socio-pedagogical, professional competence.

Мамадова Ферузахана Мирзаахмада қизи
Преподаватель Ферганского государственного университета

**БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И КОМПЕТЕНТНОСТИ**

Аннотация. В статье говорится о педагогической модели повышения педагогической культуры и компетентности будущих специалистов физической культуры, педагогической деятельности, уровне мастерства.

Ключевые слова: педагогическая культура, диагностическая, прогностическая, профилактическая, правозащитная, психологическая, социально-педагогическая, профессиональная компетентность

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N38>

Kirish. So‘nggi yillarda dunyoning jadal taraqqiyoti global o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Jamiyatimiz ham avvalgidan ko‘ra tezroq o‘zgarib bormoqda. Ko‘p yo‘nalishli o‘zgarishlarning uzluksiz ortib borayotgan intensivligi va dinamikligi xalq xo‘jaligining barcha soha va jarayonlarini qamrab oladi. Shunga ko‘ra, olib borilayotgan islohotlarga javoban insonning moslashuvida ba‘zi qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Zero, “jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o‘tish jarayoni dunyo bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o‘sib borayotgan muammolarni hal qilish usullarida raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o‘rin olish, to‘rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to‘plangan muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo‘lishi lozim” [1].

Inson hayotning barcha sohalarida - ijtimoiy, iqtisodiy, kasbiy, maishiy va hokazolarda o‘zlashtirishga majbur bo‘lgan ma‘lumotlarning hajmi va murakkabligi doimiy ravishda ortib bormoqda, bunga mos ravishda insondan o‘z bilimlarini tezda yangilash, o‘zgaruvchan axborot muhitida moslashuvchan harakat qilish qobiliyatini talab qilinadi. Fan, texnika va ijtimoiy sohada erishilgan yutuqlar, shuningdek, ishlab chiqarishni texnologiyalashtirish va axborotlashtirishning keng ko‘lamli jarayonlarini tobora kengaytirish, yangi sohalarining paydo bo‘lishi mutaxassislarining kasbiy malakasiga yuqori talablar qo‘ymoqda.

Raqobat va raqobatbardoshlik bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olyapti. Shu munosabat bilan yoshlar o‘rtasida xulq-atvorning yangi shakllari tug‘iladi, bundan yangi munosabatlar quriladi, ehtiyoj va dunyoqarash yondashuvlari o‘zgarishlarga yuz tutadi. Agar shaxsiy o‘zgarishlar ijobiy bo‘lsa, ular yoshlarga o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga faol va foydali javob berishga yordam beradi. Biroq barcha yoshlar ijtimoiy muhitning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslasha olmaydilar.

Shunday qilib, har bir inson mehnat bozorida raqobatbardoshli bo‘lishi uchun ijtimoiy mas‘uliyatli, refleksiv, moslashuvchan, harakatchan, tez qaror qabul qilish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlariga ega bo‘lishi kerak. Bunda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik natijasi sifati hozirgi kunda uzluksiz ta‘lim tizimida pedagog mutaxassislar tayyorlash sifati bilan bog‘liqdir.

Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalar ham inqirozga yuz tutayotgan hozirgi davrda raqobatbardosh kadrlar zaxirasini tayyorlash muammosi ayniqsa muhimdir. Moliyaviy - iqtisodiy inqiroz, xodimlarni qisqartirish, korxonalarining bankrotligi ishsizlikka olib keladi. Shuning uchun kasblarni birlashtirish bo‘yicha muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘lish, boshqa faoliyatga muvaffaqiyatli o‘tish yoki faoliyat turini o‘zgartirish qobiliyati, ya‘ni kasbiy raqobatbardoshlik xislatlariga ega bo‘lish ijtimoiy-iqtisodiy noqulayliklar, inqirozlar oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida jamiyatning ijtimoiy-kasbiy tuzilishi va shunga mos ravishda insonning kasbiy faoliyati sharoitlari tez o‘zgarib bormoqda. Jamiyat, ishlab chiqarish, ish beruvchilardan ularga qo‘yiladigan talablar va mansab o‘sishi, muayyan kasblarning nufuzi va boshqalarga oid ijtimoiy qadriyatlar va g‘oyalar ham o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar natijasida juda ko‘p odamlar o‘z ish joylarini va ko‘pincha o‘z kasblarini o‘zgartirish zarurligiga duch kelishdi. Ko‘pchilik uchun ularning kasbiy va ijtimoiy mavqeyini tubdan yaxshilash uchun imkoniyatlar ochib berildi,

boshqalari esa aksincha, rasmiy yoki ijtimoiy mavqei pasayib ketgan kasbni o'rganishga majbur bo'lmoqdalar.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020-yilning 24-yanvarida Oliy Majlisga murojaatida aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish zarur, buning uchun hududlarda aholi va, ayniqsa, yoshlar uchun yangi sport obyektlarini qurish, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni seleksiya qilishning tashkilot – tuman – hudud – Respublika bosqichlaridan iborat 4 bosqichli tizim joriy etilishini ta'kidlab o'tdi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020 yilda kamida 25% ga, kelgusida 50 - 60% ga yetkazishni, talabalar qabul qilish davlat grantlarini ikki barobarga oshirish, qizlar uchun alohida grantlar ajratishini ma'lum qildi[2].

Murakkabroq va mas'uliyatli kasblardan yuqori malaka, bilim va ko'nikmalarni doimiy rivojlantirish ma'lum miqdorda xarajatlar talab etadi, bu esa shaxs tomonidan muayyan sayi-harakatlarni talab qiladi. O.Posuxova fikricha, ijtimoiy tengsizlik, daromadlardagi farq turli darajalari rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy soha vakillari ijtimoiy holatining ijobiy o'zgarishiga erishishida hech bo'lmaganda bir martaba o'z kasbini o'zgartirishiga turtki bo'ladi. Nufuzli tashkilotda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish bugungi kunda hayotning barqarorligi, kelajakka ishonch hamda xodim va uning avlodlari uchun kelajakda istiqbollarni ochadigan imtiyozli yondashuv bilan bog'liq.

Ish beruvchilarning fikricha, an'anaviy ta'lim tizimi har doim ham yetarli darajada malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasini bajara olmaydi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilarining aksariyatida amaliy ko'nikma va zarur malakalar etishmaydi. Zamonaviy ta'limning umumiy inqirozi ijtimoiy sharoitlar dinamikasiga sekin moslashishdan iborat bo'lib, ta'lim jarayonining barcha makonidagi (mintaqaviy va boshqa darajalarda) ta'lim jarayonining sifati o'rtasidagi tengsizlik shaxs, jamiyat, davlatning talablari va buyruqlari, ya'ni tez o'zgaruvchan jamiyatdan ta'lim tizimining kechikishi, ta'limning eskirgan paradigmasi o'rin egallaydi.

Muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun oliy ta'lim bitiruvchisi mavjud vaziyatga mos holda qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tgan ta'lim muassasalari yosh avlodni tarbiyalash va maqsadli kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash uchun eng samarali bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'limning kredit modul tizimiga o'tish munosabati bilan oliy ta'limni modernizatsiyalash sharoitida bitiruvchining o'z kasbiy faoliyati sharoitida keng ko'lamdagi o'zgarishlarga moslashishiga imkon beradigan yangi turdagi mutaxassis uzluksiz tayyorgarligining ilg'or tizimini yaratish muammosi har qachongidan ham muhimdir.

Kredit-modul tizimining maqsadi birinchi navbatda Xalqaro miqyosda o'z o'rniga ega bo'lish, oliy ta'limning sifati va jozibadorligini hamda talaba va professor-o'qituvchilarning harakatchanligini oshirishdan iborat.

Qo'shimcha ravishda oliy ta'limni modernizatsiyalash konsepsiyasida ta'limning asosiy maqsadi tegishli darajada va profilda malakali xodim tayyorlash, kompetentli, mas'uliyatli, o'z kasbiy faoliyatiga mos sohalarga yo'naltirilgan, jahon standartlari darajasida samarali ishlashga qodir, doimiy o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy va professional harakat qila olish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikka qaratilgan.

Ammo bugungi kunda ijtimoiy pedagoglar noaniq kasbiy beqarorlik holatida. Maxsus kasbiy tayyorgarliksiz ular o'z sharoitidan kelib chiqib, o'z kasbiy vazifalari doirasini

kengaytirishga majbur bo'ladilar. Dastlab ijtimoiy pedagog xodimlar ijtimoiy ta'minot idoralarida (oilalar va bolalar markazlari, aholi ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarining turli toifalari uchun reabilitatsiya markazlari va boshqalar) faoliyat olib bormoqda), lekin bugungi kunda ular sog'liqni saqlash, ta'lim, voyaga etmaganlar jazo muassasalari va hokazolarda faoliyat olib borishmoqda. Ijtimoiy pedagogning faoliyati haqida ham shunday deyish mumkin: nogironlar uyida, qariyalar uyida, bandlik munosabatlarida va boshqalarda ishlashi ularning faoliyat olib borish spektrini yanada kengaytiradi.

Oliy ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ijtimoiy pedagoglarning professional fazilatlarini shakllantirishni hamda zarur hollarda kasbiy almashinuvchanlikni ta'minlaydi va kasblarni asosan bir-birini to'ldiruvchi faoliyat sohalari maqsadlariga mos keladigan funksional vazifalar sifatida birlashtirish imkonini beradi.

Jismoniy madaniyat insonning harakat faolligiga oid tabiiy talabalarni o'rta qo'yadi. Bu orqali insonning jismoniy holatini va sog'liqni mustahkamla qonuniyatlariga bog'liq holda organizmni rivojlantiradi va hayot uchun muhim qobiliyatlarni ro'yobga chiqaradi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar jismoniy madaniyatini mustahkamlash va sog'liq uchun muhim layoqatlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga egadir. Oliy ta'lim muassasasi ham talabalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali jismoniy madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotini olib boradi. Bugungi kunda ushbu pedagogik jarayonni yangicha metodlarda, interfaol usulda olib borish orqali samaradorlikni oshirishni maqsad qilinmoqda. Buning uchun, «jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishda xilma-xil jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish, o'quv amaliy darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida izchil tashkil qilish, mashg'ulotlar jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq qilish»[3] kerak bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy raqobatbardoshlik sifatlarini rivojlantirish ham juda muhimdir, chunki ularning kasbiy faoliyati ko'p o'lchovli va ko'p qirrali hisoblanadi. Bu ularning kasbiy vazifalari (diagnostik, prognostik, profilaktik, inson huquqlari, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy va boshqalar); kasbiy faoliyat sohalari (ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lim, huquq, davlat va nodavlat xizmatlari va boshqalar); kasbiy faoliyat obyektlari (shaxslar, oilalar, aholi guruhlari va jamoalar); mijozlarning muammolari – ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchilar (giyohvandlik, alkogolizm, yolg'izlik, ziddiyat, ishsizlik va boshqalar); ijtimoiy rollar (yurist, assistent, psixoterapevt, konfliktolog, animator, ekspert, jamoatchilik) va boshqalar.

Tahlillar va natijalar. Pedagoglar faoliyatining barcha bu noyob jihatlari moslashuvchanligini amalga oshirishda ijtimoiy soha pedagogining axborot, tashabbus, refleksiv, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik va bu fazilatlarini rivojlantirish jamiyatda samarali ijtimoiy va kasbiy-pedagogik faoliyat olib borishiga imkon beradi.

Rus olimi L.M.Mitining kuzatuvlariga ko'ra, o'z faoliyatini, qiziqishlarini, motivlarini, o'z-o'zini doimo rivojlantirish va yaxshilash uchun pedagog o'z imkoniyatlarini va qobiliyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, faoliyat subyekti sifatida raqobatbardosh shaxs to'g'risida gapirganda, quyidagilar haqida ta'kidlash kerak:

- pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini yaratuvchi barqaror shaxsiy sifatlar tizimini shakllantirish;
- qobiliyatlarni rivojlantirish;

- bilimlarni rivojlantirish;
- shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish;
- maqsadni belgilash tizimini shakllantirish;
- jamoada munosabatlar tizimini rivojlantirish;
- shaxsning muayyan kasbiy jamoa vakili sifatida o‘z-o‘zini anglashini shakllantirish;
- adekvat o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish;
- shaxsan mazmunli ustuvorliklarni belgilash qobiliyatini rivojlantirish;
- qurilmalarni shakllantirish;
- maqsad yo‘nalishlarini shakllantirish;
- emotsional barqarorlik va emotsional ekspressivlikni shakllantirish;
- shaxsning irodaviy komponentini shakllantirish.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya darsini yangicha metodika orqali tashkil qilish, dars mashg‘ulotlarida talabalarni jismoniy mashqlar bilan birga ruhiy tayyorgarlikka va ruhiy quvvatini to‘g‘ri yo‘naltirish va taqsimlashga doir ruhiy-psixologik tarbiya metodikasiga ham urg‘u berish zarurligi kelib chiqmoqda. Chunki bugungi kunda talaba-yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga, salomatligiga va tana tuzilishiga e‘tibor qaratilsa ularda kamolotning belgilarini va salomatlikni ko‘rish mumkin. Shu bilan birga sportchilar va sport bilan shug‘ullanayotgan talabalarda ham. Lekin talaba-yoshlarda jismoniy madaniyatni yuksak rivojlanmasligi, sportni erta tashlab yuborishi holatlari ulardagi ruhiy iroda va quvvatni noto‘g‘ri sarflanishi, ichki mustahkam ishonchning mavjud emasligi bilan baholanmoqda. Pedagogik jarayonda mana shu muammolarni yangicha metodika orqali ruhiy tarbiya asosida olib borish texnologiyasiga ehtiyoj sezilmoqda. Shuning uchun ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida ta‘lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va tanqidiy baholash, uni takomillashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratdi⁴.

Hozirgi kunda olimlarning zamonaviy mutaxassisning raqobatbardoshligi va uni ta‘lim bosqichida shakllantirish muammosiga qiziqishi ortib borayotganini qayd etishimiz mumkin. Shu bilan birga, raqobatbardoshlikning iqtisodiy, ijtimoiy, kasbiy, psixologik va pedagogik jihatlari o‘rganishni taqozo etadi. Turli fanlar tadqiqotchilarining say-harakatlari tufayli mutaxassisning raqobatbardoshligi mohiyati haqida umumiy fikrga kelinsa, shaxsning kasbiy shaxsiy, individual shaxsiy va ma‘naviy-axloqiy resurslariga asoslangan raqobatda ishtirok etishga tayyor bo‘lib rivojlanadi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, raqobatbardosh mutaxassis nafaqat ta‘lim muassasasining ishlab chiqarish, balki muayyan fazilatlarga ega shaxs sifatida ham qaraladi. Nafaqat faoliyatining yuqori darajadagi natijalari hisobga olinadi, balki raqobat kurashida omon qolish va g‘alaba qozonish qobiliyati ham hisobga olinadi. Xodimlarning raqobatbardoshligi ish beruvchilarning talablariga to‘la javob beradigan muayyan faoliyat sohasidagi xodimning kasbiy faoliyatni amalga oshirish va yuqori sifatli mehnat vazifalarini bajara olish qobiliyatini ifodalovchi yaxlit tushuncha.

Xulosa. Bitiruvchilarning raqobatbardoshligi mehnat bozorida bitiruvchilarning sifatli xususiyatlaridan ish beruvchiga yaxshi ish o‘rinlari uchun haq olish va bozorda boshqalarga nisbatan keng ma‘noda raqobatlashish imkoniyatini belgilashdir. Bitiruvchilarning raqobatbardoshligi bitiruvchilarning kasbiga ichki tayyorgarligini ifodalovchi yaxlit

tushunchadir va ish beruvchining tor ma'noda talablariga javob beradigan har qanday aniq sohada ish vazifalarini bajaradi.

Xodimning raqobatbardoshligi insonning mehnat qilish qobiliyatini tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida bo'lib, qobiliyatlarning quyidagi uch darajasini ifodalaydi:

1) ishlash qobiliyatini tavsiflovchi fazilatlar majmui;

2) ko'nikmalar va mos ish topish, ish beruvchini boshqa nomzodlarga nisbatan afzalliklariga ishonirish qobiliyati;

3) ish joyining ishchi kuchi talablari sifatiga muvofiqligi, xaridorning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish qobiliyati.

Muayyan faoliyat sohasidagi raqobatchi quyidagi mahoratga ega bo'lgan mutaxassisdir:

1) kasbiy kompetentlik (bilim, ko'nikma, malakalar) kasbiy vazifalarni hal qilish uchun yetarli darajada (ta'lim darajasi, ish tajribasiga ega, kasbiy bilim darajasi, ish sohasidagi ta'lim, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha bilim olgan) tayyorlanganlik;

2) maxsus shaxsiy fazilatlar majmui. Bular: faollik, samaradorlik, mehnatsevarlik, maqsadga muvofiqlik, dilkashlik, qat'iyatlilik, majburiyat, intizom, aloqa, tashabbuskorlik, ishonch, harakatchanlik, yetakchilik, diqqatlilik, mustaqillik.

Shunday qilib, yuqoridagi tahlillar asosida shaxsning raqobatbardoshligi individual-psixologik xususiyatlari kompleksida intellektual va ijtimoiy qobiliyat muhim qadriyatlar manbai bo'lib, turli muhim shaxsiy va ijtimoiy faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Kasbiy raqobatbardoshlik konsepsiyasi bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyatning asosiy usuli sifatida faoliyat tuzilishiga tayanadigan raqobatbardosh shaxs jamoat talablariga muvofiq harakat qiladigan shaxsdir. Ta'lim muassasasida umumiy va asosiy kasbiy kompetensiyalarni amalga oshirishga tayyor bo'lish, yuqori samaradorlik bilan ishlash, kasbiy holatlarni o'zgartirishga samarali javob berish va nostandart kasbiy vazifalarni hal qilish, o'z ishining natijalari uchun javobgarlikni so'zsiz o'z zimmasiga olish, doimiy shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish bilan shug'ullanish bunday holda muhimdir.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 224.
2. Ахмедов Ф.Қ, Яхшиева М.Ш. Олий таълим муассасаларида талаба қизлар жисмоний маданиятини янада такомиллаштиришнинг педагогик имкониятлари // "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 1. –Б. 408. www.openscience.uz
3. Зайниддинов Т.Б. Соғлом турмуш тарзини тўғри ташкил қилишда жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг педагогик фаолияти // Жисмоний тарбия ва саломатлик. Илмий журнал.2019, 2(75). –Б.62.
4. Қўнғиров И.Х., Қўнғирова Ш.И.Глобаллашув шароитида баркамол авлодни жисмоний ҳамда ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш //“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2017 йил.www.interfinance.uz
5. Tursinovich K. A., Mirzaakhmadovna M. F., Alijonovich E. T. "Topical issues of preuniversity preparation of students in the field of physical culture and sports //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 7. – С. 253-255.

6. Qayumovna R. M., Mirzaahmad qizi M. F. et al. Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – Т. 3. – С. 40
7. qizi, X. M. K., O'rmonjonovich, I. F., & qizi, A. M. A. (2022). Problems of Development of Physical Culture and Sports after Independence. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 58-62. Retrieved from
8. Xasanov A.T, Bobojonov N., Mamadova F.M. // Methodological approaches to the development of a profессиogram for a physical education teacher // International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS) December- 2020
9. Хожимуродова М. К. Q. TALABALAR OMMAVIY SOG 'LOMLASHTIRISH MASHG'ULOTLARIDA CHINIQTIRISH ORQALI ULAR SALOMATLIGINI MUSTANKAMLASH METODIKASI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 49-51.
10. Умаров, А., & Хожимуродова, М. (2023). ПРОБЛЕМЫ ЖЕНСКОГО СПОРТА В СЕМЕЙНО БРАЧНЫХ УСЛОВИЯХ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 313–317. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N42>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).